

Как видно из таблицы 1, применение искусственного интеллекта на краудфандинговых платформах охватывает как инвестиционно-аналитические, так и организационно-управленческие функции. Это подтверждает, что AI становится одним из ключевых факторов качественного развития цифровых финансовых сервисов.

Вместе с тем внедрение искусственного интеллекта в деятельность краудфандинговых платформ требует учета ряда ограничений. К ним относятся вопросы прозрачности алгоритмов, защиты пользовательских данных, технологической зависимости от качества исходной информации и необходимости совершенствования нормативно-правовой базы. Без решения данных вопросов масштабное распространение интеллектуальных технологий в финтех-среде может сопровождаться новыми институциональными и операционными рисками.

Таким образом, искусственный интеллект играет все более важную роль в развитии краудфандинговых платформ как одного из инструментов альтернативного финансирования. Его использование способствует повышению качества анализа проектов, расширению возможностей персонализированного обслуживания, оптимизации внутренних процессов и укреплению цифровой финансовой инфраструктуры в целом. В перспективе дальнейшая интеграция AI-технологий в деятельность краудфандинговых платформ может стать важным фактором развития финтех-экосистемы и расширения доступа субъектов экономики к инвестиционным ресурсам.

Литература:

1. Belleflamme, P., Lambert, T., & Schwienbacher, A. (2014). *Crowdfunding: Tapping the right crowd. Journal of Business Venturing, 29(5), 585-609.*
2. Grand View Research. (2025). *Crowdfunding market size, share & trends analysis report by type (reward-based, equity-based), by application, by region, and segment forecasts, 2025-2030. Grand View Research.*
3. MarketsandMarkets. (2025). *AI in finance market by component, deployment mode, application, and region - Global forecast to 2030. MarketsandMarkets.*
4. Troise, C., Matricano, D., & Candelo, E. (2020). *The role of artificial intelligence in crowdfunding platforms. Technological Forecasting and Social Change, 151, Article 119777.*

MAMLAKATNING XALQARO REYTINGLARDAGI O'RNIGA TA'SIR ETUVCHI INSTITUTSIONAL OMILLAR

Tuxtayev Akobirjon Hakimovich

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rniga ta'sir etuvchi asosiy institutsional omillar tahlil qilindi. Xususan, qonun ustuvorligi, korrupsiyani nazorat qilish darajasi, davlat boshqaruvi samaradorligi, tartibga solish sifati, siyosiy barqarorlik hamda jamoatchilik hisobdorligi kabi omillarning mazmuni va ularning xalqaro reyting ko'rsatkichlariga ta'siri ilmiy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida institutsional muhitning rivojlanish darajasi mamlakatning investitsion jozibadorligi, iqtisodiy barqarorligi hamda global raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil ekanligi

asoslab berildi. Shuningdek, xalqaro reytinglarda mamlakat pozitsiyasini yaxshilashga xizmat qiluvchi institutsional islohotlarning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: *institutsional omillar, xalqaro reytinglar, qonun ustuvorligi, korrupsiyani nazorat qilish, davlat boshqaruvi samaradorligi, siyosiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy raqobatbardoshlik.*

Bugungi globallashtirish jarayonida mamlakatlarning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsion jozibadorligi hamda institutsional muhitining samaradorligini baholovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida Global raqobatbardoshlik indeksi, iqtisodiy erkinlik indeksi, korrupsiyani qabul qilish indeksi kabi reytinglar davlat boshqaruvi sifati, qonun ustuvorligi, biznes muhitining barqarorligi kabi institutsional omillar bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli ushbu omillarni chuqur o'rganish va tahlil qilish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Milliy darajada ham mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rnini iqtisodiy siyosat samaradorligini baholash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Institutsional muhitning takomillashuvi, davlat boshqaruvi samaradorligining ortishi hamda korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan islohotlar mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu masala "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar bilan ham uzviy bog'liqdir. Strategiyada davlat boshqaruvini takomillashtirish, ochiq va samarali institutsional tizimni shakllantirish hamda xalqaro reyting va indekslarda mamlakat o'rnini yaxshilash muhim maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Shu bois mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rniga ta'sir etuvchi institutsional omillarni tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ilmiy adabiyotlarda mamlakatlarning xalqaro reyting va indekslardagi o'rniga ta'sir etuvchi institutsional omillar keng o'rganilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda (2022–2025) xorijiy tadqiqotchilar davlat boshqaruvi sifati, korrupsiyani nazorat qilish, qonun ustuvorligi va institutsional shaffoflik kabi omillarning global reytinglar hamda iqtisodiy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligini empirik usullar yordamida tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlar institutsional muhit mamlakatlarning raqobatbardoshligi va xalqaro reytinglardagi o'rnini belgilovchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

2025-yilda tadqiqotchi Mekonnen Bogale Abegaz tomonidan olib borilgan "Analyzing the Impact of Governance on Corruption Perception: A Global Perspective"²⁹⁶ nomli ilmiy ishda davlat boshqaruvi ko'rsatkichlari va korrupsiyani qabul qilish indeksi o'rtasidagi bog'liqlik global miqyosda panel ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat boshqaruvi sifati oshishi korrupsiya darajasining pasayishiga va mamlakatlarning xalqaro baholash indekslaridagi ko'rsatkichlari yaxshilanishiga olib keladi.

2025-yilda turkiyalik olim Abdullah Özçil tomonidan yozilgan "Ranking of G20 Countries' Governance Index Scores Using PSI Multi-Criteria Decision-Making

²⁹⁶ Abegaz M. B. Analyzing the Impact of Governance on Corruption Perception //Horn of African Journal of Business and Economics (HAJBE). – 2025. – T. 8. – №. 1. – C. 84–102-84–102.

Method”²⁹⁷ tadqiqotida G20 davlatlarining boshqaruv indeksleri ko‘p mezonli tahlil usuli yordamida baholangan. Tadqiqotda samarali boshqaruv tizimi, siyosiy barqarorlik va institutsional sifat mamlakatlarning global reytinglardagi o‘rnini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida e‘tirof etilgan.

2025-yilda Ahmed Yusuf Sarihan va Harun Yildiz tomonidan amalga oshirilgan “A PLS-SEM Approach to Understanding the Relationship between Global Competitiveness and Environmental Performance: The Moderating Role of Perceived Corruption”²⁹⁸ nomli tadqiqotda korrupsiya darajasi global raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, korrupsiyaning kamayishi mamlakatlarning raqobatbardoshlik indeksleri hamda boshqa xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

2022-yilda Arvian Triantoro va hamkorlari tomonidan olib borilgan “Corruption, Violence, and the Rule of Law Affecting Regulatory Control: Forecast Evaluation”²⁹⁹ nomli tadqiqotda korrupsiya, siyosiy barqarorlik va qonun ustuvorligi kabi institutsional omillar iqtisodiy boshqaruv sifatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi econometrik modellar asosida o‘rganilgan. Tadqiqot natijalarida ushbu omillar mamlakatning institutsional rivojlanish darajasi hamda xalqaro baholash ko‘rsatkichlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Ushbu tadqiqotda mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rniga ta‘sir etuvchi institutsional omillarni aniqlash va ularning mazmun-mohiyatini yoritish maqsadida nazariy ma‘lumotlar tahlili usulidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o‘rganildi va umumlashtirildi. Shuningdek, ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish orqali institutsional omillarning mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro reytinglardagi o‘rniga ta‘siri baholandi. Nazariy manbalarni tahlil qilish natijasida mamlakatning xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy institutsional omillar aniqlanib, ularning mazmuni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rni ko‘p jihatdan institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda davlat boshqaruvi sifati, siyosiy barqarorlik, korrupsiyani nazorat qilish, qonun ustuvorligi va tartibga solish tizimining samaradorligi kabi omillar xalqaro reytinglarning asosiy mezonlari sifatida qaraladi. Xususan, Worldwide Governance Indicators (WGI) tizimi mamlakatlarning institutsional rivojlanishini baholashda olti asosiy ko‘rsatkichni — ovoz berish va hisobdorlik, siyosiy barqarorlik, davlat boshqaruvi samaradorligi, tartibga solish sifati, qonun ustuvorligi hamda korrupsiyani nazorat qilishni o‘lchaydi.


Birinchi muhim institutsional omil — qonun ustuvorligi hisoblanadi. Bu omil jamiyatda barcha subyektlarning qonunlarga rioya qilishi, sud tizimining mustaqilligi va shartnomalarning bajarilish darajasini ifodalaydi.

²⁹⁷ Abdullah Özçil "Ranking of G20 Countries' Governance Index Scores Using PSI Multi-Criteria Decision-Making Method"//Advancements in Decision-Making and Data Analytics: Case Applications, p.81-96. 1.Edition, March 2025.

ISBN: 978-625-385-089-0

²⁹⁸ Sarihan A. Y., Yildiz H. A PLS-SEM approach to understanding the relationship between global competitiveness and environmental performance: the moderating role of perceived corruption //Future Business Journal. – 2025. – T. 11. – №. 1. – C. 159.

²⁹⁹ Arvian T. et al. Corruption, violence, and the rule of law affecting regulatory control: forecast evaluation //Экономический журнал Высшей школы экономики. – 2022. – Т. 26. – №. 1. – С. 145-164.



Mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rniga ta’sir etuvchi asosiy institutsional omillar.

Qonun ustuvorligi kuchli bo'lgan mamlakatlarda mulk huquqlari ishonchli himoya qilinadi, jinoyatchilik darajasi past bo'ladi hamda iqtisodiy munosabatlar barqaror rivojlanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, qonun ustuvorligi fuqarolar va investorlarning jamiyat qoidalariga ishonchini oshiradi hamda iqtisodiy faoliyat uchun xavfsiz muhit yaratadi.

Ikkinchi muhim omil — korrupsiyani nazorat qilish darajasidir. Korrupsiya davlat resurslarining samarasiz taqsimlanishiga, investitsiya muhitining yomonlashishiga va iqtisodiy rivojlanishning sekinlashishiga olib keladi. Shu sababli ko'plab xalqaro reytinglarda korrupsiyani nazorat qilish darajasi alohida indikator sifatida baholanadi. Masalan, Corruption Perceptions Index davlat sektoridagi korrupsiya darajasini 0 dan 100 gacha bo'lgan shkala asosida baholab, mamlakatlarni global reytingga joylashtiradi. Korrupsiya darajasi past bo'lgan davlatlarda biznes muhitining shaffofligi yuqori bo'ladi va bu xalqaro reytinglarda ijobiy natijalarni ta'minlaydi.

Uchinchi institutsional omil — davlat boshqaruvi samaradorligi hisoblanadi. Bu omil davlat xizmatlari sifati, byurokratiya darajasi, siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarining samaradorligi bilan bog'liq. Samarali davlat boshqaruvi iqtisodiy siyosatni izchil amalga oshirishga imkon yaratadi hamda davlat institutlariga bo'lgan ishonchni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvi samaradorligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish barqaror bo'ladi va xalqaro reytinglarda yuqori natijalar qayd etiladi.

To'rtinchi muhim omil — tartibga solish sifati (regulatory quality) hisoblanadi. Ushbu omil davlatning biznes va iqtisodiy faoliyatni tartibga solish siyosati qanchalik samarali ekanligini ifodalaydi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi, ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytiruvchi va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi siyosat yuritilgan mamlakatlarda iqtisodiy faollik oshadi. Natijada bu davlatlar xalqaro iqtisodiy reytinglarda yuqori natijalarga erishadi, chunki tartibga solish sifati investitsiya muhitining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Beshinchi institutsional omil — siyosiy barqarorlik va xavfsizlikdir. Siyosiy beqarorlik, ichki nizolar yoki zo'ravonlik xavfi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy faoliyat sezilarli darajada pasayadi. Aksincha, siyosiy barqarorlik mavjud bo'lgan davlatlarda iqtisodiy siyosat izchil amalga oshiriladi, investitsiyalar ko'payadi va xalqaro hamkorlik rivojlanadi. Shu sababli siyosiy barqarorlik ko'plab global reytinglarda muhim indikator sifatida baholanadi va mamlakatning xalqaro maydondagi imijiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oltinchi muhim institutsional omil — hisobdorlik va jamoatchilik ishtiroki (voice and accountability) hisoblanadi. Bu omil fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlari, so'z erkinligi, ommaviy axborot vositalari mustaqilligi va davlat organlarining jamiyat oldida hisobdorligini aks ettiradi. Mazkur omil jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlab, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshiradi. Natijada bunday davlatlar xalqaro reytinglarda barqaror va yuqori natijalarga erishadi, chunki demokratik institutlarning rivojlanganligi global baholash tizimlarida muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, institutsional omillar mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rnini belgilovchi asosiy determinantlar hisoblanadi. Qonun ustuvorligi, korrupsiyani nazorat qilish, davlat boshqaruvi samaradorligi, tartibga solish sifati, siyosiy barqarorlik hamda jamoatchilik hisobdorligi kabi omillar davlat institutlarining barqaror ishlashini ta'minlaydi. Ushbu omillarning yuqori darajada rivojlanishi mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirib, global reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashiga xizmat qiladi.

Shu sababli zamonaviy iqtisodiy siyosatda institutsional islohotlar mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rnini ko'p jihatdan institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Xususan, qonun ustuvorligi, korrupsiyani nazorat qilish, davlat boshqaruvi samaradorligi, tartibga solish sifati, siyosiy barqarorlik hamda jamoatchilik hisobdorligi kabi omillar davlat institutlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlab, iqtisodiy muhitning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi. Ushbu omillarning rivojlanishi investitsiya jozibadorligini kuchaytiradi, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi hamda mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshligini oshiradi. Natijada institutsional tizimning takomillashuvi xalqaro reyting va indekslarda yuqori natijalarga erishish, shuningdek, milliy iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Davlat boshqaruvi tizimida shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni kuchaytirish orqali xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash.

2. Sud-huquq tizimini yanada mustahkamlash hamda mulk huquqlarini ishonchli himoya qilish orqali investorlar ishonchini oshirish.

3. Tadbirkorlik faoliyati uchun ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirish va tartibga solish siyosatini soddalashtirish orqali biznes muhitini yaxshilash.

4. Davlat organlari faoliyatida jamoatchilik nazorati va ochiq ma'lumotlar tizimini kengaytirish orqali hisobdorlik darajasini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abegaz M. B. *Analyzing the Impact of Governance on Corruption Perception //Horn of African Journal of Business and Economics (HAJBE)*. – 2025. – T. 8. – №. 1. – C. 84–102-84–102.

2. U.Sh.Habibjonov. *Analysis of free economic zones in Uzbekistan//Economics and Innovative Technologies*. – 2024. – T. 12. – №. 5. – C. 88-95.

3. Abdullah Özçil "Ranking of G20 Countries' Governance Index Scores Using PSI Multi-Criteria Decision-Making Method"//*Advancements in Decision-Making and Data Analytics: Case Applications*, p.81-96. 1.Edition, March 2025. ISBN: 978-625-385-089-0.

4. U.Sh.Habibjonov. "Analysis of factors influencing the volume of foreign direct investments in the republic of Uzbekistan: correlation analysis." *Экономика и социум 4-1 (131) (2025): 200-207*.

5. Sarihan A. Y., Yildiz H. *A PLS-SEM approach to understanding the relationship between global competitiveness and environmental performance: the moderating role of perceived corruption //Future Business Journal*. – 2025. – T. 11. – №. 1. – C. 159.

6. Arvian T. et al. *Corruption, violence, and the rule of law affecting regulatory control: forecast evaluation //Экономический журнал Высшей школы экономики*. – 2022. – T. 26. – №. 1. – C. 145-164.

7. Sultani, G., & Usmonjon, H. (2024). *Stages of integration of the educational system in the development of globalization. Education and economy. Masters, 2(9), 74-79*.